

## ZAMONAVIY TARBIYA USULLARI TEXNOLOGIYASI VA ULARNING ZARURATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14963473>

**Malikova Dilraboxon**

*pedagogka fanlari bo'yicha PhD*

*Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi*

## MODERN EDUCATIONAL METHODS TECHNOLOGY AND THEIR NEED

**Malikova Dilrabakhon**

*is a PhD in pedagogic sciences*

*Independent researcher of TPMI named after Qori Niyazi*

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБРАЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ НЕОБХОДИМОСТЬ

**Маликова Дилрабахон**

*кандидат педагогических наук*

*независимый исследователь ТПМИ имени Кори Ниязи*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tarbiya va uning zarurati, jamiyat va oilada uning o'rnini haqida so'z yuritiladi. Milliy va xalqaro tarbiya tajribasi tahlil qilinadi. Zamonaviy tarbiya usullari va texnologiyasi tadqiq qilinadi.

### **Abstract**

This article talks about education and its necessity, its place in society and family. The experience of national and international education is analyzed. Modern educational methods and technology are studied.

### **Резюме**

В статье речь идёт о воспитании и его необходимости в обществе и семье. Анализируются национальные и международные опыты воспитания. Исследуется современные методы и технологии воспитания.

### **Kalit so'zlar**

tarbiya, o'quvchilar, yosh avlod, usullar, axloqiy tarbiya, Sharq, G'arb, tarbiya texnologiyasi.

**Key words**

education, students, young generation, methods, moral education, East, West, educational technology.

**Ключевые слова**

воспитание, ученики, молодое поколение, методы, нравственное воспитание, Восток, Запад, технологии воспитания.

**Nazariya.** Tarbiya pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, jamiyat taraqqiyotida murakkab muammolarning oldini oladigan hodisadir. Ta'lim tarbiyasiz hech qanday natija bermasligi mumkin, chunki xulqi a'lo, ma'naviy barkamol, madaniy insonlargina o'z ilmini yaxshilikka yo'naltira oladilar. Azaldan tarbiya oiladan boshlanishini inkor etmagan holda tashqi muhitning ham ta'sirini ta'kidlash lozim. Mahalla va maktabdagi madaniy muhitning holati yosh avlod tarbiyasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Tarbiyaning natijasi amalda ko'rinishi uchun bir necha omillar mavjudligi sabab, biz ularni ta'kidlab o'tamiz. Sharqiy va G'arbiy tarbiya usullarining o'ziga xos bo'lgan eng ustun jihatlar keskin bir - biridan farq qiladi:

Sharq tarbiyasining poydevorini ruh va axloqning barkamolligi, insonlarga yaxshilik qilish, barcha zararli odatlardan voz kechish tashkil etadi;

G'arbda tarbiyalanuvchi tanlov imkoniyatiga ega bo'ladi, o'z xatolari va yanglishishlari asosida hayotiy tajriba orttiradi.

Tarbiya oiladagi muhitga bevosita bog'liqligi uchun o'sib kelayotgan yosh avlodning taqdiriga beparvo bo'lish noto'g'ri. Dono xalqimiz qush uyasida ko'rganini qiladi, deganida, farzandlarning ota-onalariga taqlid qilishlarini nazarda tutganlari shubhasiz. Sharq sivilizatsiyasi rivojiga ilm qancha hissa qo'shgan bo'lsa, tarbiyaning o'rnini ham undan oz emas. Allomalar shogirdlariga ta'lim berishdan oldin ularning tarbiyasiga ahamiyat berganlar, ma'naviy- axloqiy xususiyatlarini rivojlantirganlar, sabr-qanoat masalasiga jiddiy e'tibor qaratganlar. Tarixiy asarlarda eti sizniki, suyagi bizniki, deya farzandlarini ustozlarga topshirayotgan ota-bobolarni tez-tez uchratamiz. Rus olimlaridan Xomyakov A.S. G'arb qadimgi Rim tarbiyasini o'zlashtirgan va manfaat masalasi yuqori o'rinda turadi, deb ta'kidlagan edi. Yana bir olim Peykova Z. Finlyandiyalik hamda rossiyalik yoshlar o'rtasida so'rov o'tkazganida, finlar yaxshi maosh to'lanadigan ish topish masalasini birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsa, vatandoshlari o'zlaridan yaxshi nom qolishi haqida qayg'urishlarini qayd etganlar.

**Metodika.** Zamonaviy tarbiya metodlari shaxsning jamiyatda o'z o'rniga ega, to'laqonli shakllangan inson sifatida rivojlanishi sari yo'naltiradi. Tarbiya o'quvchilarning manfaatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda takomillashtirilishi kerak, uning asosini esa, pedagogik konsepsiya va prinsiplar tashkil etadi. Zamonaviy tarbiyaning maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'ramiz:

1. O'quvchilarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi;
2. Ildamlayotgan vaqt oqimida o'quvchilarning axloqiy-aqliy qobiliyatlarini o'stirish;
3. Umumjahon taraqqiyotidan ortda qolmagan holda milliy qadriyatlarni singdirish;
4. Madaniyatlar qorishmasi yuzaga kelayotgan davrda milliy madaniy meros tushunchasiga alohida yondashish.

Tarbiyaning an'anaviy metodlari, ishontirish, rag'batlantirish, jazolash, mashq, namuna va boshqalarni tadbiq etishdan to'xtamagan holda ayrim o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, maqsadga tezroq erishamiz.

**Tarbiya texnologiyasi fanlar kesimida quyidagilarga ajratiladi:**

1. Falsafiy jihatdan- materialistik, pragmatik, gumanestik, antroposofik;
2. Ilmiy tomonlama- axloqiy, ziyolilik, harakatchanlik, neyro-lingvistik dasturga muvofiqlik;
3. Ob'ekt sifatida individual, guruhli, jamoaviy, ommaviy.

Umuman olganda, tarbiyaning hamma uchun ma'qul keladigan, mos tushadigan metodlari haligacha to'la ishlab chiqilgan deyish xatodir, chunki shaxsiy kamolot va shaxs kamoloti jamiyatning oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir.

Shaxs shakllanishida oila va mahallaning o'rni muhim ekan, ularning oldidagi mas'uliyatni kamaytirmagan holda o'qituvchilar zimmasidagi bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Maktabdagi ta'lim jarayonini tashkil etishda sinfda yuzaga kelgan muhitning doimiy nazoratini unutmashlik, o'quvchilar orasidagi munosabatlarga panja orasidan qaramaslik, tortinchoq, ayniqsa, o'zlashtirishda oqsayotgan o'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish, muammoli oila bolalari bo'lgan o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldirmaslik va hokazo.

Jiddiy masalalarni hal qilishda oila va maktab hamkorligi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkin.

O'quvchilar yoshi, xarakteri va temperamentiga ko'ra, alohida yondashuvni talab qilgani uchun ularga individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiya metodlarini qo'llash kerak. Ba'zan o'quvchilar bilan olib borilgan suhbat yaxshi

natija bersa, ayrim hollarda ibratli voqealarga asoslangan film namoyish etish zarurati paydo bo'ladi.

Xalqaro tajribalardan ma'lumki, maktab hududida tarbiyaning bir necha turlari bir vaqtda parallel tarzda olib boriladi, axloqiy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy, mehnat va hokazolarni qayd qilishimiz mumkin. O'quvchilar maktabga ta'til kunlarida ham qatnashda davom etadilar, boshlagan loyihalarini to'xtatmaydilar. Sport bilan shug'ullanadigan o'quvchilar esa, o'zlari ko'nikkan muhitda shug'ullanadilar. Kompleks maktablarda shakllangan madaniy muhit ta'sirida o'quvchilar ongida nosog'lom fikr paydo bo'lishining oldi olinadi, ularda ibrat olish uchun sabablar tug'iladi, hamjihatlikda tahliliy, va pedagogigik-tahlil munozarali mashg'ulotlar rejali o'tkaziladi.

O'smirlar o'rtasida eng ko'p uchraydigan muammolardan biri - bo'sh vaqt. Odatda, kun davomida band bo'lgan ota-ona farzandlarni doimiy nazorat ostida ushlay olmaydilar. Bunday vaqtda, oilada yuzaga kelgan ishonch muhiti ahamiyatlidir. Chunki o'quvchining maktabdan keyin vaqtini qanday o'tkazganini bilish uchun kechki suhbatlar oila kundalik hayotidagi qonuniyatga aylanishi lozim. Yana bir muammo noto'g'ri muhitga tushib qolish. Bunday holatning oldini olish uchun tarbiyaning o'zigina yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham o'quvchilarni kun davomida band qiladigan maktablarning ko'proq tashkil etilishi maqsadaga muvofiqdir. Ko'p tarmoqli bunday maktablarda nafaqat o'qituvchilar, psixolog va boshqa mutaxassislar balki tarbiyachilar lavozimi mavjud bo'lishi o'quvchilarning layoqatiga qarab, ular bilan shug'ullanishga sabab bo'ladi.

Tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda mahalla vakillaridan namunali oila vakillarini, ya'ni o'z farzandlarini yaxshi tarbiyalab, jamiyatning munosib a'zolari qatoriga qo'shgan kishilar tajribasidan foydalanish muhim. Ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida o'quvchilar orasidagi jamoaviy munosabatlarning rivojlanishida mutolaa kechalari, yangi filmlar namoyishi, tematik badiiy munozaralar, iste'dodlar kashf etilishi kabi muloqot tadbirlari sabab bo'lishi aniq.

**Tarbiyaning zamonaviy vazifalari quyidagicha:**

- ❖ O'quvchilarning shaxsiy sifatleri va qobiliyatlarini shakllantirish;
- ❖ Axloqiy va madaniy tarbiya;
- ❖ Fuqaro, oila boshlig'i va hokazo xususiyatlarni shakllantirish;
- ❖ Ilmiy anglash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ❖ Umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish;
- ❖ Qiziqishlar hamda qobiliyatga ko'ra rivojlantirish.

*Bu vazifalarni amalda qo'llash uchun quyidagilardan foydalanish tavsiya qilinadi:*

✓ Anglash, ishontirish, og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ya'ni suhbat, dialog, hikoya, munozara va hokazo;

- ✓ Pedagogik ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoniga ruhiy, emotsional, tasavvur ko'magida aralashish;
- ✓ Tartib, topshiriq, talab qilish orqali mehnat va o'zini tutishga o'rgatish;
- ✓ Mashqlar, masalalar va toshiriqlar yordamida vazifalarni mustahkamlash;
- ✓ Musobaqalar, tanlovlar, turnirlar, o'yinlar orqali rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- ✓ Anketa, test, tahlil orqali o'z-o'zini nazorat qilish, baholash, mantiqan hamda ongli ravishda imkoniyatlarini ko'rib chiqish.

**Xulosa.** Demak, tarbiya barcha zamonlarning dolzarb masalasi bo'lib kelgan va olimlar bu sohada yana bir qancha izlanishlarni davim ettirmoqdalar. Nafaqat bir millat yoki davlat aholisi, balki umuminsoniy muammolarning oldini olishda tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shuni nazarda tutgan holda tadqiqotlarni davom ettirib borish zarur.

*Yosh avlod tarbiyasining zamonaviy tendensiyalarini amaliyotga joriy etish uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:*

- Tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanishdan tashqari zamonaviy metodlarni ham qo'llash;
- O'quvchilar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan holda, har qanday kichik masalaga ham alohida yondashish;
- Ota-onalarning bandligini nazarda tutib, o'quvchilarni kun davomida band etadigan kompleks maktablar tashkil qilib, ularda tarbiyachi vazifasini joriy qilish;
- Tarbiyani maktab va mahalla hamkorligida oilalar ko'magida tashkil qilish.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Янушквявичене О.Л., Концепция духовного воспитания запада и востока в исторической ретроспективе. Вестник Московского университета, серия 20 педагогическое образование 2008.
2. Шустова И.Ю., Методы и формы воспитания современного школьника. Известия Саратовского университета, новая серия, серия философия, психология, педагогика, 2024.
3. Оленев С.М. Скворцов К.В. Современные задачи воспитания подростков и молодёжи в социально-культурном контексте. Педагогический журнал Башкартостана, 2020.